

MARKAZIY SEROZ XORIORETINOPATIYANING TURLI SHAKLLARINI DAVOLASHDA BO'SAG'A OSTI MIKROIMPULSLI LAZER TA'SIRINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Djamalova SH.A.¹, Ibodullayeva D.CH.², Aktamov A.SH.³

¹Tibbiyot fanlari doktori, dotsent, Respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikrohirurgiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi ilmiy bo'lim mudiri, shirinkon@mail.ru, +998(90)9840792, <https://orcid.org/0000-0002-8765-8176>

² Tayanch doktorant, Respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikrohirurgiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, dildora1993_11.22@icloud.com, +998(97)9209311, <https://orcid.org/0000-0001-5997-6428>

³Shifokor oftalmolog, MCHJ "SIHAT KO'Z" klinikasi, azizbekaktamov12345@gmail.com, +998(97)9232856, <https://orcid.org/0000-0002-4891-1992>

Annotatsiya. Dolzarbliyi. Markaziy seroz xorioretinopatiya asosan mexnatga layoqatli yoshdag'i kishilarda (39-51 yosh) uchrab, xoriokapil-lyarlar o'tkazuvchanligining oshishi, pigment epiteliy funksiyasining buzilishi, to'r parda neyroepiteylisi yoki pigment epitelisining seroz ko'chishi, subretinal bo'shliqq suyuqlik ajralib chiqishi kabi o'zgarishlar bilan kechadigan kasallik. Kasallikni davolashda turli spektrdag'i lazer qurilmalar mavjud bo'lib, ularning samaradorligi va kamjarohatiligidagi aniqlash davolashning yangicha taktilarini yaratilishiga tutki hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi. Markaziy seroz xorioretinopatiya kasalligining turli shakllarini bo'sag'a osti mikroimpuls lazer ta'siri yordamida davolash samaradorligini baholash. **Materiallar va usullar.** MSXR kasalligi bilan og'regan 50 nafar bemorni (53 ta ko'z) tekshiruvdan o'tkazdik. Ularning 12 nafari (24%) ayollar (o'rtacha yoshi $32,4 \pm 5,2$), 38 nafari (76%) erkaklar (o'rtacha yoshi $39,8 \pm 3,6$) tashkil qildi. Davolash to'r pardanining seroz ko'chgan sohasiga 577 nm to'lqin uzunligidagi lazer «Easy Ret» (Quantal Medical (Fransiya)) qurilmasining bo'sag'a osti mikroimpuls tasiri berish orqali o'tkazildi. **Natijalar va xulosasi.** O'tkazilgan lazer amaliyotidan 14 kun o'tgach asosiy guruhdagi 18 nafar (36%) bemorlarda subretinal suyuqliknинг to'liq so'riliши OKT tekshiruvlarida tasdiqlandi. 6 oy o'tgandan so'ng 42ta kўzda (84%) seroz ko'chishning to'liq ravishda so'riliши kuzatildi, 2 nafar bemorda (4%) kasallikning qaytalanishi kuzatildi. Bo'sag'a osti mikroimpuls lazer ta'siri amaliyoti o'tkazilgan bemorlarni tekshiruv va kuzatuv natijalari ushbu davolash usulining MSXR kasalligining turli shakllarini davolashda samaradorligi va xavfsizligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: Markaziy seroz xorioretinopatiya, bo'sag'a osti mikroimpuls lazer ta'siri, neyroepiteliy ko'chishi, flyuorescent angiografiya.

Iqtibos uchun:

Djamalova SH.A., Ibodullayeva D.CH., Aktamov A.SH. Markaziy seroz xorioretinopatiyaniнning turli shakllarini davolashda bo'sag'a osti mikroimpuls lazer ta'sirining samaradorligini baholash. Ilg'or Oftalmologiya. 2024;10(4): 15-17.

ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ СУБПОРОГОВОГО МИКРОИМПУЛЬСНОГО ЛАЗЕРНОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ ПРИ ЛЕЧЕНИИ РАЗЛИЧНЫХ ФОРМ ЦЕНТРАЛЬНОЙ СЕРОЗНОЙ ХОРИОРЕТИНОПАТИИ

Джамалова Ш.А.¹, Ибодуллаева Д.Ч.², Акрамов А.Ш.³

¹Доктор медицинских наук, дотцент, заведующая научного отдела Республиканского специализированного научно-практического медицинского центра микрохирургии глаза. shirinkon@mail.ru, +998 (90)9840792, <https://orcid.org/0000-0002-8765-8176>

²Базовый докторант республиканского специализированного научно-практического медицинского центра микрохирургии глаза. dildora1993_11.22@icloud.com, +998(97)9209311, <https://orcid.org/0000-0001-5997-6428>

³Врач офтальмолог, глазная клиника СП ООО "SIHAT KO'Z" azizbekaktamov12345@gmail.com, +998(97)9232856, <https://orcid.org/0000-0002-4891-1992>

Аннотация. Актуальность. Центральная серозная хориоретинопатия встречается преимущественно у лиц трудоспособного возраста (39-51 год). Болезнь представляет собой несколько изменений как: повышенной проницаемостью хориокапилляров, дисфункцией пигментного эпителия, серозной отслойкой нейроэпителия сетчатки (выделение жидкости в субретинальное пространство) или пигментного эпителия. При лечении заболевания используются различные типы лазерных аппаратов, и определение их эффективности и минимального ущерба к сетчатке рассматривается как толчок к созданию новой тактики лечения. **Цель исследования.** Оценка эффективности субпорогового микроимпульсного лазерного воздействия при лечении различных форм центральной серозной хориоретинопатии. **Материалы и методы.** Обследовано 50 пациентов (53 глаз), страдающих заболеванием ЦСХР. Из них 12 составляли (24%) женщины (средний возраст $32,4 \pm 5,2$), 38 (76%) мужчины (средний возраст $39,8 \pm 3,6$). Лечение проводилось с помощью подпороговым микроимпульсным лазерном воздействием аппарата 577 нм «Easy Ret» (Quantal Medical (Франция)) на отслоенной участок нейроэпителия. **Результаты и заключение.** При осмотре через 14 дней полное всасывание жидкости выявлено у 18 больных (36%) подтвержденная данными ОКТ. Через 6 мес полное разрешение серозной отслойки наблюдалось в 42 глазах (84%), рецидив заболевания наблюдался у 2 больных (4%). Результаты обследования и наблюдений показали эффективность субпорогового микроимпульсного лазерного воздействия при лечении различных форм заболевания ЦСХР.

Ключевые слова: центральная серозная хориоретинопатия, субпороговое микроимпульсное лазерное воздействие, отслойка нейроэпителия, флюоресцентная ангиография.

Для цитирования:

Джамалова Ш.А., Ибодуллаева Д.Ч., Акрамов А.Ш. Оценка эффективности субпорогового микроимпульсного лазерного воздействия при лечении различных форм центральной серозной хориоретинопатии. Передовая Офтальмология. 2024;10(4): 15-17.

EVALUATION OF THE EFFECTIVENESS OF SUBTHRESHOLD MICROIMPULSE LASER EXPOSURE IN THE TREATMENT OF VARIOUS FORMS OF CENTRAL SEROUS CHORIORETINOPATHY

Djamalova SH.A.¹, Ibodullayeva D.CH.², Aktamov A.SH.³

¹Doctor of Medical Sciences, Associate Professor, Head of the Scientific Department of the Republican Specialized Scientific and Practical Medical Center for Eye Microsurgery. shirinkon@mail.ru, +998 (90)9840792, https://orcid.org/0000-0002-8765-8176

²Basic doctoral student of the Republican specialized Scientific and practical Medical Center of Eye Microsurgery, dildora1993_11.22@icloud.com, +998(97)9209311, https://orcid.org/0000-0001-5997-6428

³Ophthalmologist of the eye clinic "SIHAT KO'Z" azizbekaktamov12345@gmail.com, +998(97)9232856, https://orcid.org/0000-0002-4891-1992

Annotation. Relevance. Central serous chorioretinopathy occurs predominantly in people of working age (39-51 years). The disease presents several changes such as: increased permeability of the choriocapillaris, dysfunction of the pigment epithelium, serous detachment of the retinal neuroepithelium (fluid secretion into the subretinal space) or pigment epithelium. Various types of laser devices are used in the treatment of the disease, and determining their effectiveness and minimal damage to the retina is considered as an impetus for the creation of new treatment tactics. **Purpose of the study.** Evaluation of the effectiveness of subthreshold micropulse laser exposure in the treatment of various forms of central serous chorioretinopathy. **Materials and methods.** 50 patients (53 eyes) suffering from CSCR disease were examined. Of these, 12 (24%) were women (mean age 32.4±5.2), 38 (76%) were men (mean age 39.8±3.6). Treatment was carried out using subthreshold micropulse exposure of the 577 nm "Easy Ret" laser device (Quantal Medical (France)) to the detached area of the neuroepithelium. **Results and conclusion.** Upon examination after 14 days, complete absorption of fluid was detected in 18 patients (36%), confirmed by OCT data. After 6 months, complete resolution of serous detachment was observed in 42 eyes (84%), recurrence of the disease was observed in 2 patients (4%). The results of the examination and observations showed the effectiveness of subthreshold micro-pulse laser exposure in the treatment of various forms of CSHR disease.

Key words: central serous chorioretinopathy, subthreshold micropulse laser exposure, neuroepithelial detachment, fluorescein angiography.

For citation:

Djamalova SH.A., Ibodullayeva D.CH., Aktamov A.SH. Evaluation of the effectiveness of subthreshold microimpulse laser exposure in the treatment of various forms of central serous chorioretinopathy. Advanced Ophthalmology. 2024;10(4): 15-17.

Dolzarblik. Markaziy seroz xoriorretinopatiya (MSXR)

- asosan mexnatga layoqatli yoshdag'i kishilarda (39-51 yosh) uchrab, xoriorkapillyarlar o'tkazuvchanligining osishi, pigment epiteliy (PE) funksiyasining buzilishi, to'r parda neyroepiteliysining (NE) yoki pigment epiteliysining seroz ko'chishi, subretinal bo'shligha suyuqlik ajralib chiqishi bilan kechadigan kasallik hisoblanadi [1,2]. Kasallikning o'tkir va surunkali xillarini davolashda bugungi kunda bo'sag'a osti mikroimpuls lazer ta'siri (BMLT) keng qollanilib kelinmoqda .BMLT asosiy ta'siri energiyaning ketma-ket, o'ta qisqa pikosekundlardagi impulslar shaklida uzatilishini o'z ichiga oladi. Hujayralarda ma'lum miqdordagi harorat oshishi to'qimalar destruktsiyaga olib kelmaydi va bu o'z navbatida koagulyatsiya holtini keltirib chiqarmaydi. Lazer koagulyatsiyaning fotorerseptorlarga zararli ta'sirlarini kamaytiradi [3,4].

Tadqiqot maqsadi. Markaziy seroz xoriorretinopatiya kasalligining turli shakkilarini bo'sag'a osti mikroimpuls lazer ta'siri yordamida davolash samaradorligini baholash.

MATERIALLAR VA USULLAR. Biz Respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikroquirgiysi ilmiy-amaliy tibbiyat markaziga murojaat qilib kelgan, MSXR kasalligi bilan og'igan 50 nafar bemorni (53 ta ko'z) tekshiruvdan o'tkazdik. Ularning 12 nafari (24%) ayollar, 38 nafari (76%) erkaklar tashkil qildi. Ayollar o'rtacha yoshi 32,4± 5,2, erkaklar 39,8±3,6 tashkil qildi. Asosoy guruh sifatida olingan bemorlarning 17 nafari (19 ta ko'z) (34%) kasallikning surunkali shakli bilan, 25 nafari (25 ta ko'z) esa 50% o'tkir shakli bilan og'igan. Nazorat guruhiiga 9 nafar (9 ta ko'z) (18%) kasallikning o'tkir shakldagi bemorlar olindi.

Tadqiqot uchun olingan bemorlarda quyidagi mavjud holatlar istisno qilindi, anti-VEGF (Vascular Endothelial Growth Factor) terapiya va fotodinamik terapiya o'tkazilgan, xorioideya qavatida neovaskulyar qon tomir o'sganligi

aniqlangan bemorlar.

Barcha bemorlar standart va qo'shimcha (Flyuor-essent Angiografiya (FAG) ,Optik Kogerent Tomografiya (OKT) va angio Optik Kogerent Tomografiya (angio OKT) tekshiruvlari amaliyotdan oldin va nazorat tekshiruvlari-da qayta o'tkazildi [5].

Lazer amaliyoti sariq (577 nm) to'lqin uzunligidagi «EasyRet» (Quantal Medical (Fransiya)) lazer qurilmasining bo'sag'a osti mikroimpuls ta'siri rejimida o'tkazildi. Dastlab lazer applikatlari to'r pardaning qon tomir arkadasiga yaqin sohada quyidagi ko'satkichlarda: lazer energiya kuchi 700 mV, diametri 100 mkm, I kuyish effekti holatida hosil qilindi. Tanlangan energiya kuchining 50% olinib, mikroimpuls "ishlash rejimi" 5% tashkil etuvchi, impuls ekspozitsiyasi 0.2 sek bo'lgan lazer applikatlari kvadrat ko'rinishidagi jamlanmalar holatida yo'llandi. Lazer aplikatlari soni 30-50 tagacha bo'lib, lazer energiya kuchi har bir bemor uchun mos ravishda tanlandi. Tanlangan ko'satkichlar yordamida PE yoki NE seroz ko'chgan sohasi va FAG da aniqlangan giperflyuressentsiyalashgan maydoni lazer qilinadi. Nazorat tekshiruvlari amaliyotdan kiyin birinchi oyda har 2 haftada, ikkinchi oydan boshlab har oyda 1 marotaba, 6 oy muddatgacha o'tkazildi. Natijalar Microsoft Excel 2012 dasturida o'tkazilib, M±m ko'rinishida taqdim etildi.

Natijalar va muhokama. Asosiy guruh bemorlar FAG tekshiruvida filtratsiya nuqtalari, 26 nafarida (52%) 1 dona, 4 nafarida (8%) 2 donadan, 1 nafarida (2%) 3 va undan ko'p son ko'rinishida aniqlandi. 13 nafar (26%) surunkali shakl mavjud bemorlarda FN aniqlanmadи va buyoqning diffuz sizib chiqishi kuzatildi. Nazorat guruhidagi 9 nafar bemorlarning 8 nafarida (16%) FN 1 dona, 1(2%) nafar bemorda esa 2 dona aniqlandi. FAG tekshirvi BMLT bajarilgandan so'ng bir oy muddatda qayta o'tkazildi.

Asosiy guruh bemorlarining barchasida (44 nafar ko'z) bir martadan BMLT amaliyoti o'tkazildi. Nazorat guruhidagi 9 nafar (9 ta ko'z) kasallikning o'tkir shakli bilan og'igan bemorlarda hech qanday davolash metodi qo'llanilmadi va kasallik kechishi aralashuvsız kuzatildi. Aniqlangan FN sohasiga bir biriga zich holatda joylashgan «qatlam» shaklida, seroz ko'chgan sohaga esa «panjara» shaklida BMLT bajarildi.

Bir oydan kiyungi o'tkazilgan nazorat FAG tekshiruvida asosiy guruhdagi 44 ta ko'zdan 5 (10%) tasida FN qayta aniqlandi. Nazorat guruhidagi 9 ta ko'zdan 4 tasida (8%) FN qayta aniqlangan asosiy va nazorat guruhidagi bemorlarda BMLT amaliyoti qayta o'tkazildi.

Lazer tasiri berishdan oldin OKT tekshiruvida o'tkir shakli bilan kasallangan bemorlarda ko'chgan to'r parda neyroepiteliysining balandligi o'rtacha $312,2 \pm 139,6$ mkm balandlikda bo'lib, amaliyotdan so'ng $245,2 \pm 41,7$ mkm ko'rinishda bo'ldi. Surunkali shaklida esa amaliyotgacha o'rtacha balandlig $267,4 \pm 110,2$ mkm tashkil qilib, amaliyotdan so'ng $239,2 \pm 64,1$ mkm ko'rsatkichlarni berdi.

Asosiy guruhdagi bemorlar maksimal korreksiyadagi ko'rishning o'rtachasi amaliyotdan oldin ($0,3 \pm 0,2$) va kiyungi ($0,65 \pm 0,09$) holatida bo'lib, yaqqol farqni ko'rishimiz mumkin. Nazorat guruhidagi bemorlar maksimal korreksiyadagi ko'rishning o'rtachasi amaliyotdan oldin ($0,2 \pm 0,15$) va kiyungi ($0,3 \pm 0,09$) ko'rsatkichlarni ifodaladi. Asosiy guruhdagi 18 (36%) nafar ko'zda BMLT amaliyotidan kiyungi 14 kunda subretinal suyuqlikning to'liq so'riliishi kuzatildi. 6 oydag'i kuzatuvlarda suyuqlikning

ADABIYOTLAR // REFERENCES

- Балашевич Л.И., Гацу М.В., Касимов Э.М., Искандерова Н.Г. Современные представления об этиологии и патогенезе центральной серозной хориоретинопатии. Офтальмохирургия. 2007;2: 63-67. [Balashovich L.I., Gatsu M.V., Kasimov E.M., Iskanderova N.G. Modern concepts of the etiology and pathogenesis of central serous chorioretinopathy. Ophthalmosurgery. 2007;2: 63-67 (In Russ.)].
- Щеголева И.В., Будзинская М.В. Этиология и патогенез центральной серозной хориоретинопатии. Вестник офтальмологии. 2010;3:55-58. [Shchegoleva I.V., Budzinskaya M.V. Etiology and pathogenesis of central serous chorioretinopathy. Bulletin of ophthalmology. 2010;3:55-58 (In Russ.)].
- Desmettre, T.J. Micropulse and continuous wave diode retinal photocoagulation: visible and subvisible lesion parameters / T.J. Desmettre, S.R. Mordon, D.M. Buzawa, M.A. Mainster. Br. J. Ophthalmol. 2006;90(6): 709-712.
- M. Moschos, D. Brouzas, C. Koutsandrea, et al. Assessment of central serous chorioretinopathy by optical coherence tomography and multifocal electrotoretinography// Ophthalmologica. 2007. V. 221. P.292-298.
- Yoshioka H., Sugita T., Nagayoshi K. Fluorescein angiographic findings in experimental retinopathy produced by intravenous adrenaline injection. Preliminary report. Nippon Ganka Kiyo. 1970; 21: 648-652.

batamom so'riliishi asosiy guruhdagi 42 nafar (84%) bemorlarda kuzatildi va 2ta (4 %) holatda kasallikning qaytalanishi aniqlandi. 2 nafar (4%) bemorda PE lokal ko'chishi saqlanib qoldi. Kuzatuvda bo'lgan bemorlarning 2 (4%) nafarda FN o'z o'zidan berkiliishi kuzatilmadi va suyuqlikning qisman so'riliishi aniqlandi. Kasallikning kaytalanishi kuzatilgan va nazoratdagi FN o'z o'zidan berkiliishi kuzatilmagan bemorda qayta BMLT amaliyoti o'tkazildi.

Xulosa. Bo'sag'a osti mikroimpuls lazer ta'siri FN subfoveal sohada joylashganida yoki FN butkul aniqligagan bemorlarda, to'r parda neyroepiteliysining katta maydonli ko'chishi mavjud hollarda va kasallikning qaytalanishi yuzaga kelganda ushbu amaliyotni bir necha marotaba takrorlash imkonı mavjudligi uning MSXR kasalligini davolashda keng qo'llanilishiga imkon beradi.

Tekshiruv va kuzatuvlar natijasi shuni ko'rsatadiki BMLT amaliyoti o'tkazilgan bemorlarda ko'rish o'tkirligining oshishi, ko'chgan to'r parda neyroepiteliysining anotomik normal holatga qaytishi, BMLT amaliyotidan kiyungi bajarilgan FAG tekshiruvida FN aniqlanmasligi ushbu davolash usulining MSXR kasalligining turli shakllarini davolashda samaradorligi va xavfsizligini ko'rsatdi.